

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA NUTQ O‘STIRISH, TOVUSHLARNING TO‘G‘RI TALAFFUZ QILISH MEXANIZMI

Pardayeva K.T.
TAFU tqdqiqotchisi

Annotatsiya: Bolalar nutqini ostirish nazariyasi va texnologiyalar moduli shaxsda nutqiy ta’lim jarayonida maktabgacha ta’lim-pedagogikasi kasbiga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko‘nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko‘rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to‘g‘ri ifodalashi o‘zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, ona tilida nutq o‘stirishning o‘rni, ahamiyati kattadir. Chunki til kishilarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, yangilanishlar tilda o‘z aksini topadi.

Tayanch tushncha va iboralar: grammatik ko‘nikmalar, nutq shakllari, tarbiyachi, maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila, nutq ko‘nikmalari, tarbiyachi vazifasi.

Модуль теории и технологии речевого воспитания детей служит для обогащения у человека знаний, умений, навыков, имеющихся у него представлений о профессии дошкольного - педагогического образования речевого воспитания. Основной задачей дошкольного образования является подготовка детей к обучению в школе. Дети в дошкольном образовании должны овладевать не только конкретными знаниями, но и навыками мышления, понимать речи сверстников и взрослых, свободно обмениваться с ними идеями, осуществлять деятельность на основе сотрудничества. Необходимо, чтобы дети образно и логически мыслили на родном языке, правильно выражали свои представления посредством речи, контролировали себя, обладали такой умственной подготовкой, как наблюдение, слух, запоминание, обобщение, сравнение. В выполнении этой задачи, безусловно велика роль значимости науки о развитии речи на родном языке. Потому что язык-средство общения людей и социальное явление, он служит всем людям одинаково и изменения, обновления в развитии общества отражаются в языке.

The module of theory and technology of speech education of children serves to enrich a person's knowledge, skills, and ideas about the profession of preschool - pedagogical education of speech. The main task of preschool education is to prepare children for school. Children of preschool education should gain not only specific knowledge, but also thinking skills, understand the speech of peers and adults, freely exchange ideas with them, and carry out activities on the basis of cooperation. It is necessary that children think logically

in their native language, correctly express their ideas through speech, control themselves, have such mental training as observation, hearing, memorization, generalization, comparison. In performing this task the importance of the science of speech development in the native language certainly plays a great role. Because language is a means of communication between people and a social phenomenon, it serves all people equally and changes, updates in the development of society are reflected in language.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarni aniq aytish, ularni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlar va iboralarni aniq talaffuz qilish, to‘g‘ri nutqiy nafas olish, shuningdek ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish qobiliyati, nutqning normal sur‘ati va ifodalilikning turli intonatsion vositalari (nutq musiqasi, mantiqiy sukut, urg‘ular, nutq sur‘ati, ritmi va tembri) ni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Nutqning tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Bolalarda to‘g‘ri va yaxshi jaranglaydigan nutqni rivojlantirar ekan, tarbiyachi quyidagi vazifalarni hal etishi zarur: -bolalarda tinglash qobiliyatini tarbiyalash, uning komponentlarini, ya‘ni: tinglash e‘tibori (biron-bir tovushni jaranglashiga qarab qanday tovush ekanligini va uning yo‘nalishini aniklay olish), fonematik tinglash, mazkur nutq sur‘ati va ritmini qabul qila olish qobiliyatlarini asta-sekin rivojlantirib borish; - artikulyatsiya apparatini rivojlantirish; - nutqiy nafas olish ustida ishlash, ya‘ni iboralar bilan erkin so‘zlay olish uchun qisqa nafas olish va davomli nafas chiqarishni o‘rgatish; - muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda ovoz balandligini boshqarish qobiliyatini tarbiyalash; - ona tilining barcha tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish; - har bir tovushni, shuningdek so‘zlar va iboralarlarni aniq va tushunarli talaffuz qilishga, umuman yaxshi talaffuzga odatlanish; - so‘zlarni o‘zbek adabiy tilining orfoepiya qoidalarini me‘yorlariga mos holda talaffuz qilishni rivojlantirish; - normal nutq sur‘atini shakllantirish, ya‘ni so‘zlar va iboralarni nutqni tezlashtirmay va sekinlash-tirmay sekinlik bilan hamda shu bilan birga tinglovchiga aniq tushunish imkoniyatini yaratgan holda talaffuz qilishni o‘rgatish; - nutqning ohangiy ifodaliligini tarbiyalash, ya‘ni fikrlar, xissiyotlar va kayfiyatni mantiqiy pauza, urg‘u, ohang, sur‘at, ritm va tembr yordamida aniq ifodalash qobiliyatini shakllantirish. Tarbiyachi nutqdagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va uni mutaxassisga yuborishdan oldin bunday nuqsonlar haqida yetarli tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Endi har bir vazifani batafsil ko‘rib chiqamiz.

Nutqni shakllantirishning dastlabki davrida nutqni tinglashga oid asosiy komponentlarni rivojlantirish bir tizmda bormaydi. Chunonchi, nutqni rivojlantirishning birinchi bosqichlarida tinglash e‘tiboriga alohida ahamiyat beriladi. Vaxolanki, bunda asosiy mantiqiy vazifa yuqori tovush tinglash qobiliyati zimmasiga tushadi. Bolalar tovush balandligi o‘zgarishini nutqning xis-xayajonli xususiyatiga (jaxd qilinsa unga javoban yig‘laydilar hamda xushmuomala va mayin munosabatga javoban jilmayadilar) va tembriga (onasi va boshqa yaqinlarini ovozlaridan taniydi) muvofiq holda qarab tanib olishni biladilar, shuningdek so‘zning ritmik suratini, ya‘ni uning sheva-bo‘g‘in tarkibini (so‘zning

bo‘g‘inlar soni va asosiy urg‘uning joyiga bog‘liq bo‘lgan tovush tuzilishi xususiyatlari) nutq sur‘ati bilan birlikda to‘g‘ri qabul qiladilar. Kelgusida nutqni rivojlantirishda fonematik tinglash qobiliyatini, ya‘ni bir tovushni boshqasidan aniq ajrata olish va buning natijasida ayrim so‘zlarni tanish hamda tushunish qobiliyatini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Yaxshi rivojlangan nutqni tinglash qobiliyati ona tilining barcha tovushlarini aniq va to‘g‘ri talaffuz qilishni ta‘minlaydi, so‘z aytishda uning balandligini to‘g‘ri boshqara olish va uni oxista sur‘atda, ohang jihatdan ifodali qilib so‘zlash imkonini beradi. Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish artikulyatsiya apparatini rivojlantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Nutqni tinglash qobiliyatini tarbiyalash bola-larda nutq jarangdorligining turli xil ko‘rinish-larini, ya‘ni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlarni aniq va tushunarli aytish, ovozni pasaytirish yoki kuchaytirish, nutq balandligi, tezligi, oxistaligi, uni jadallashtirish va sekinlashtirish, tembral ishlov berish (iltimos, buyruq va boshq.) kabilarni qabul qila olish qobiliyatini shakllanti-rishga qaratilgandir.

Artikulyatsiya apparatini rivojlantirish. Nutqiy tovushlar og‘iz bo‘shlig‘ida shakllanadi, uning shakli va hajmi harakatchan a‘zolar: lablar, til, pastki jag‘, og‘izning yumshoq yuqori qismi, qizilo‘ngach holatiga bog‘liq bo‘ladi. Muayyan tovushni talaffuz qilish uchun zarur bo‘lgan nutq organlarining to‘g‘ri holati va harakati artikulyatsiya deb ataladi. Artikulyatsiya apparati tuzilishidagi buzilishlar, masalan, qisqa tilosti tuguni, noto‘g‘ri tishlashish, og‘iz yuqori qismining xaddan tashqari balandligi yoki pastligi va boshqa ayrim kamchiliklar tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilishga odatlanishga olib keluvchi dastlabki omillar hisoblanadi. Biroq, agarda bolaning artikulyatsiya apparati organlari harakatchan bo‘lsa, u yaxshi ting-lash qobiliyatiga ega bo‘lsa, bu holda ko‘pchilik holat-larda uning o‘zi tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qodir. Agarda bolaning artikulyatsiya apparati harakatida nuqsonlar mavjud bo‘lsa (masalan, til kam harakatlansa), bu holda u tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, sust, noaniq va tushunarsiz nutqqa olib kelishi mumkin. Shuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagi-lardan iborat: tilning harakatchanligini rivojlanti-rish; lablarning yetarli darajadagi harakatchanligini rivoj-lantirish; pastki jag‘ni tovushlarni talaffuz qilish uchun muhim bo‘lgan muayyan holatda tutib turishni o‘rganish.

O‘pkadan kekirdak, bo‘g‘iz, og‘iz bo‘shlig‘i yoki burun orqali chiqayotgan havo oqimi tovush hosil qiluvchi manba hisoblanadi. Nutqiy nafas olish o‘z-o‘zidan ro‘y beradigan nonutqiy nafas olishdan farqli ravishda ixtiyoriy nafas olish hisoblanadi. Nonutqiy nafas olishda nafas olish va nafas chiqarish burun orqali amalga oshiriladi, nafas olish o‘zining davomiyligi bo‘yicha nafas chiqarishga deyarli teng bo‘ladi. Nutqiy nafas olish og‘iz orqali amalga oshiri-ladi, nafas olish tez, nafas chiqarish esa sekinroq ro‘y beradi. Nonutqiy nafas olishda nafas olishdan keyin darxol nafas chiqariladi, so‘ngra pauza saqlanadi. Nutqiy nafas olishda esa nafas olinganidan keyin pauza saqlanadi, so‘ngra asta-sekinlik bilan nafas chiqariladi. To‘g‘ri nutqiy nafas olish to‘g‘ri tovush hosil bo‘lishini ta‘minlaydi, nutqning tegishli balandlikda bo‘lishini ta‘minlash, pauzalarga aniq rioya qilish, nutqning asta-sekinligini va intonatsion ifodalili-gini saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Nutqiy nafas olishdagi xatoliklar umumiy zaiflik, adenoidik o‘simtalar, turli yurak-tomir

kasalliklari oqibati bo‘lishi mumkin. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga salbiy tas‘ir ko‘rsatuvchi nafas chiqarishdan oqilona foydalana olmaslik, nafas olayotib so‘zlash, o‘pkani yetarli darajada havo bilan to‘ldirmaslik kabi nutqiy nafas olishdagi nomutanosibliklar noto‘g‘ri tarbiya, kattalarning bolalar nutqiga yetarli darajada e‘tibor bermaganliklari oqibatida ham yuz bergan bo‘lishi mumkin. Zaif nafas oladigan va nafas chiqaradigan maktabgacha yoshdagi bolalar odatda, past ovozda so‘zlaydilar, uzun iboralarni talaffuz qilishda qiynaladilar. Nafas chiqarishda havodan nooqilona foydalanilganida nutqning izchilligi buziladi, chunki bolalar iboraning o‘rtasida nafas olishga majbur bo‘ladilar. Ko‘pincha bunday bolalar so‘zlarni oxirigacha aytmaydilar va ba‘zan ibora so‘nggida ularni shivirlab aytadilar. Ba‘zida bolalar uzun iborani nihoyasiga yetkazish uchun nafas olib so‘zlashga majbur bo‘ladilar, buning natijasida nutq noaniq bo‘ladi, bolalar xuddi tiqilib qolgandek so‘zlaydilar. Chunki, tezlashtirilgan nafas chiqarish iboralarni mantiqiy pauzalarga rioya qilmasdan jadal sur‘atda so‘zlashga majbur qiladi. Shuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: maxsus o‘yinli mashqlardan foydalangan holda erkin, bir tekis va uzaytirilgan nafas chiqarishni o‘rgatish; pedagog nutqiga taqdid qilgan holda undan to‘g‘ri, oqilona foydalanishni (kichik iboralarni uzoq nafas chiqarish bilan talaffuz qilish) tarbiyalash.

Ovoz ustidagi ishlar. Ovoz apparati vositasida balandligi, kuchi va tembri turlicha bo‘lgan tovushlar chiqariladi: ularning umumiyligi aynan inson ovozi aniqlaydi. Har bir ovoz xususiyatlarini alohida ko‘rib chiqamiz. Ovoz balandligi - ohangning ko‘tarilishi va pasayishi, yuqori ovozdan past ovozga o‘tish va aksincha. Ovoz kuchi - tovushlarni muayyan balandlikda talaffuz etish, shuningdek tovushni bor ovozi bilan talaffuz eta olish qobiliyati. Ovoz tembri - ovozga sifat jihatdan ishlov berish (jarangdor, ma‘nosiz, titroq, bo‘g‘iq va boshq.) Ovoz ovoz tugunchalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Uning sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Yuqori nafas yo‘llarining turlicha tebranishlari, surunkali shamollash, adenoid o‘simtalar va xokazolar ovozdagi buzilishlarning yuz berishiga yordam beradi. Ko‘pincha maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz buzilishi undan noto‘g‘ri foydalanish: doimiy ravishda baqirib so‘zlash, ayniqsa yilning sovuq davrida ko‘chalarda baland ovozda so‘zlash orqali ovoz tugunchalarini zo‘riqtirish, bola ovozi diapazoniga mos kelmaydigan ohangda so‘zlash (masalan, bolalar anchaga yosh bolalarning chiyilloq nutqiga takdid qiladilar yoki “adasi nomidan” past ovozda so‘zlashga urinadilar) oqibatida yuz beradi. Ovozdagi buzilishlar burun-tomoq yoki yuqori nafas yo‘llariga oid kasalliklarni boshdan kechirgan hamda kasallik paytida yoki sog‘ayganidan so‘ng darhol ovozni asrash rejimga rioya qilmagan bolalarda ham vujudga kelishi mumkin. Ovoz imkoniyatlaridan noto‘g‘ri foydalanish bola shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari (juda uyatchan bola ko‘pincha past ovozda so‘zlaydi; tezda g‘ayratga keladigan bolalar baland ohanglarda so‘zlaydilar); noto‘g‘ri tarbiyaga (agarda atrofdagilarning o‘zlari baland ovozda so‘zlasalar bolalar ham noiloj shunga o‘rganadilar); agarda xonada doimiy shovqin-suron bo‘lsa (radio, televizor, maktabgacha ta‘lim tashkiloti guruhidagi doimiy shovqin-suron va x.k.) bolalarning baland ovozda so‘zlashga majbur bo‘lishlariga bog‘liqdir.

Tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: o‘yinlarda, o‘yinli mashqlarda ovozning asosiy sifati - kuchi va balandligini rivojlantirish; bolalarni zo‘riqmasdan so‘zlashga o‘rgatish, ularni ovozdan turli vaziyatlarga mos holda foydalanishga odatlantirish (past-baland). Ona tilining barcha tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish. Maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Bu ishlar maktabgacha ta’lim tashkilotida nihoyasiga yetkazilmog‘i lozim. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni faqatgina bolalarda artikulyatsiya apparati organlarining harakatchanligi va tez o‘zgara olishi, nutqiy nafas olishi yetarli darajada rivojlangan, ular o‘z ovozlari boshqarishni uddalay olgan taqdirdagina shakllantirish mumkin. To‘g‘ri talaffuzni shakllantirish uchun yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyatiga ega bo‘lish ham juda muhimdir, chunki u o‘z-o‘zini nazorat qilish imkonini beradi, o‘z-o‘zini nazorat qilish esa doimo o‘z ustida ishlashga undaydi. Tovushni talaffuz qilishdagi kamchiliklar nutqiy apparatdagi nuqsonlar (og‘izning yuqorigi qattiq va yumshoq qismlaridagi nuqsonlar), tish-jag‘ tizimi tuzilishdagi xatoliklar, til osti tugunchalarining qisqaligi, artikulyatsiya organlarining yetarli darajada harakatchan emasligi, fonematik tinglay olish qobiliyati (bir tovushni boshqasidan farqlay olmaslik) yetarli rivojlanmaganligi oqibatida yuz berishi mumkin. Jismoniy tinglay olish qobiliyatining susayganligi, o‘z nutqiga beparvolarcha munosabatda bo‘lish (o‘zini ham, boshqalarni ham tinglay olmaslik), atrofdagilarning noto‘g‘ri nutqlarini o‘zlashtirib olish ham talaffuzda kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Bolalarning tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilishlari tovushlarni tashlab ketishda, bir tovushni boshqasi bilan almashtirishda va tovushni buzib talaffuz qilishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, tovushlarni almashtirib yoki buzib talaffuz qilish holatlari aniqlangan bolalar bilan ishlashni o‘z vaqtida boshlash juda muhimdir, chunki tovushlar o‘rnini almashtirish keyinchalik yozma nutqda ham paydo bo‘lishi mumkin (bir harfni boshqasi bilan almashtirish), buzib talaffuz etilayotgan hamda o‘z vaqtida tuzatilmagan tovushlar keyinchalik uni bartaraf etish uchun logoped va bolaning birgalikda ko‘p vaqt hamda mexnat sarflashlarini talab qiladi. Bundan tashqari, unutmaslik zarurki, tovush talaffuzidagi kamchiliklar ko‘pincha bolaning o‘zi nutqda xatolikka yo‘l qo‘yishi emas, balki faqat maxsus davolash va ta’lim berishni talab qiluvchi nisbatan murakkab nutq buzilishlarining (alaliya, dizatriya va boshq.) bir belgisi hisoblanadi. Tarbiyachi quyidagilarni amalga oshirishi lozim: bolalarga har qanday pozitsiyada (so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida) va so‘z tarkibi turlicha bo‘lganida (har qanday undosh birikmalari va bo‘g‘inlar soni istalgancha bo‘lganida) barcha tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish; nutqida kamchilik bo‘lgan bolalarni o‘z vaqtida aniqlash va zarur xollarda ularni o‘z vaqtida maxsus bolalar tashkilotlariga yuborish.

Diksiyaga oid ishlar. Yaxshi diksiya, ya’ni har bir tovushni, shuningdek so‘zlar va iboralarni alohida va aniq, tushunarli qilib talaffuz etish bolada bir vaqtning o‘zida artikulyatsiya apparatini rivojlantirish va takomillashtirish bilan birgalikda asta-sekin shakllanadi. Diksiyaga oid ishlar ona tilining barcha tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirishga doir ishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Bola nutqining barcha tomonlari jadal rivojlanayotgan 2 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davrda uning so‘zlar va iboralarni aniq va

tushunarli talaffuz etishiga e’tibor–ni qaratish, bolalarda so‘zlardagi barcha tovushlarni aniq aytgan, iboralardagi barcha so‘zlarni tushunarli qilib talaffuz qilgan holda oxista sur’atda taqlid qilish nutqini tarbiyalash zarur. Biroq har doim ham faqat taqlid qilish orqali yaxshi diksiyaga erishib bo‘lmaydi. Bunga nutqni tinglash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, artikulyatsiya apparati organ–larining yetarlicha harakatchan emasligi, o‘z ovozi boshqara olmaslik va boshqa kamchiliklar to‘siq bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha noaniq diksiya so‘zlovchilarning nutqini diqqat-e’tibor bilan tinglay olmaydigan va o‘z-o‘zini nazorat qilish yetarli darajada rivojlanmagan, e’tiborini bir narsaga jamlay olmaydigan va salga jaxli chiqadigan bolalarda yuz beradi. Bunday bolalar nutqi noaniq, aralash bo‘ladi, ular har doim ham so‘zlar, iboralarni oxirigacha aytmaydilar. Asta-sekin atrofdagilar va o‘z nutqini diqqat bilan tinglashni o‘rganishi, nutqiy nafas olish, artikulyatsiyani rivojlantirishi, ovozni boshqarishni o‘rganishi natijasida bolaning diksiyasi ham yaxshilanib boradi. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga grammatik jihatdan to‘g‘ri nutqni, yaxshi diksiyani o‘rgatishi, ularni atrofdagilar nutqini diqqat bilan tinglash va o‘z talaffuzining aniqligini kuzatib borishga odatlantirishi zarur.

Orfoepiyaga doir ishlar. Kishilar bir-birlarini tushunishlari uchun ular og‘zaki nutqining tovush qismi bir xil bo‘lishi darkor. Shuning uchun tarbiyachilar nafaqat o‘zlari og‘zaki nutq qoidalariga rioya qilishlari lozim, balki ular bolalarni ham shunga odatlantirishlari kerak. Biz bir necha bor bolalarning o‘z nutqida maxalliy shevani, jaydari so‘zlarni qo‘llayotganini, urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yayotganliklarini, so‘zlarni harfiga qarab aytayotganliklariga duch kelamiz. Tarbiyachi bolalarning adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi. Bu o‘rinda tarbiyachining vazifasi quyidagilardan iborat bo‘lmog‘i lozim: ona tilining orfoepik me’yorlarini o‘zlashtirib olish yo‘li bilan o‘z nutqining talaffuz madaniyatini oshirish, mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishda muntazam ravishda turli qo‘llanmalar, lug‘atlardan foydalanish.

Nutq sur’atiga doir ishlar

Nutq sur’ati deganda, nutqning vaqt bo‘ylab davom etish tezligi tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar sekin so‘zlashdan ko‘ra ko‘proq tez sur’atda so‘zlaydilar. Bu nutqning tushunarliqligi, aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, tovush artikulyatsiyasi yomonlashadi, ba’zan alohida tovushlar, bo‘g‘inlar va hatto so‘zlar tushib qoladi. Ayniqsa bu nuqsonlar uzun so‘zlar yoki iboralarni talaffuz qilishda ko‘p uchraydi. Tarbiyachining faoliyati bolalarda so‘zlar juda aniq jaranglaydigan oxista nutq sur’atini shakllan–tirishga yo‘naltirilishi zarur.

Intonatsion ifodalilikka oid ishlar

Intonatsiya – bu nutqdagi barcha ifoda vositalari–ning murakkab majmui bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: musiqiylik - iborani aytishda ovozning kuchayishi va pasayishi, bu nutqqa turli buyoqlar baxsh etadi va birxillikdan qochish imkonini beradi. Musiqiylik jaranglayotgan nutqning har bir so‘zida ishtirok etadi. Balandligi va kuchiga qarab o‘zgargani holda unlilar unga ishlov berishni nihoyasiga yetkazadilar; sur’at - nutqiy kesimlar o‘rtasidagi pauzalarni hisobga olgan holda nutqning aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda jadallashishi va sekinlashuvi; ritm - urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarning

bir tekis o‘rin almashishi (ya’ni, ularning quyidagi sifatlari: uzoqlik va qisqalik, ovozni balandlatish va pasaytirish); iboraviy va mantiqiy urg‘ular - aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda pauzalar, ovozni balandlatish, so‘zlarni talaffuz qilishdagi zo‘riqish va uzoqligi bilan ajratish; nutq tembri - (tovush tembri va ovoz tembri bilan aralashtirib yuborilmaslik) tovushning ekspressiv-emotsional buyoqlari (qayg‘uli, quvnoq, xazin tembr). Ifodalilikning ushbu vositalari yordamida muloqot jarayonida fikrlar va iboralarni, shuningdek emotsional-iroda munosabatlarini aniqlashtirish amalga oshiriladi. Intonatsiya tufayli fikr tugallangan tusga ega bo‘ladi, aytilgan fikr asosiy ma’noni o‘zgartirmagan holda qo‘shimcha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Birinchi bosqich - bu 1 yoshu b oydan to 3 yoshgacha bo‘lgan davr. Ushbu bosqichda (ayniqsa, uning boshida) faol lug‘at jadal rivojlanadi. Ilgari shakllanib ulgurgan artikulyatsiya harakatlari yaxlit so‘zlarni talaffuz qilishda ishtirok etgani holda unga ayrim o‘zgartirishlar kiritiladi, ya’ni bunda aniqlashtirish yuz beradi, u yanada barqarorlashadi. Bolaning yaxlit so‘zni aytishga ongli ravishda taqlid qilish qobiliyati rivojlanadi, shu tufayli tarbiyachi bola nutqining tovush jihatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Turli tovush taqlidlaridan foydalanish nutqning tovush madaniyatiga doir ishlarning asosini tashkil qiladi. Ishning samaradorligi ortadi, chunki ushbu yoshdagi bolalar bilan mashg‘ulotlar kichik guruhlarda olib boriladi. Ikkinchi bosqich - 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan davr. Bu yoshda so‘zning fonetik va morfologik tarkibini shakllantirish jarayoni boradi. Eng qiyin artikulyatsiya harakatlarini takomillashtirish davom ettiriladi. Bu bola uchun oraliq, affrikat va sonor tovushlarini chiqarish imkoniyatini yaratadi. Ushbu bosqichdagi ishlar bolalarning so‘zning tovush jihatiga nisbatan sezilarli ravishda ajralib turadigan ongli munosabatiga tayanadi va u ona tilining barcha tovushlarini izchil ravishda mashq qilish asosida quriladi. Uchinchi bosqich - 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davr. Bu bosqich go‘yoki maktabgacha ta’lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi kichikintoylar nutqining tovush tomonini shakllantirishdagi yakunlovchi davr hisoblanadi. Davr boshida eng qiyin artikulyatsiya harakatlari shakllanib bo‘ladi, biroq bunda shu narsa muhimki, artikulyatsiya yoki akustik belgilari bo‘yicha yaqin bo‘lgan (s-sh, z-x, s-z va boshq.) tovushlar bir-biridan aniq farqlanishi (talaffuzda ham, nutqni tinglash orqali qabul qilishda ham) lozim. Bunday tovushlarni tabaqalashtirish, farqlashni takomillashtirishga oid maxsus ishlar bolalarda fonematik tinglash qobiliyatini yanada rivojlantirishga, fonemalarni mazmun farqlovchi tovushlar sifatida o‘zlashtirishga yordam beradi (surat - sur‘at, dur-tur va boshq.). Mazkur davrda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash asosiy tovushlar juftligini tabaqalash-tirish asosida quriladi va bir vaqtning o‘zida diksiya, sur‘at, intonatsion ifodalilik va x.k. larni o‘z ichiga oladi. Tarbiyachi har bir bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarning asosiy mazmunini nazarda tutgani holda ayni paytda bolalar nutqini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

Xulosa sifatida, aytish mumkinki fikr mazmuni ham o‘zgarishi mumkin. Ohang jihatidan ifodali bo‘lmagan nutq odatda, tinglash qobiliyatining sustligi, nutqni tinglash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, noto‘g‘ri nutqiy tarbiyalash, nutqdagi turli nuqsonlar (dizartriya, rinolaliya va boshq.) oqibatida yuz berishi mumkin. Bola o‘z

nutqida turli his-hayajon va kechinmalarini tinglovchiga yetkazish uchun ifoda vositalarini to‘g‘ri qo‘llashni bilishi lozim. Tarbiyachi nutqi his-hayajonga to‘liq bo‘lishi hamda intonatsion ifodalilik namunasi bo‘lib xizmat qilishi lozim. Intonatsion ifodalilikka doir ishlar asosan taqdid yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tarbiyachi she‘rlarni yod olishda, hikoya qilib berishda o‘zi ham nutqning ifoda vositalaridan foydalanadi va bola nutqining ifodaliligiga e‘tiborni qaratadi. Bolalar tarbiyachining to‘g‘ri, ifodali nutqini eshitgani sayin asta-sekin mustaqil nutqda zarur intonatsiyalarni qo‘llay boshlaydilar. Nutqning tovush madaniyatiga doir barcha ishlar bo‘limlari o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘ladi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir o‘yinlar va mashg‘ulotlarni muntazam hamda izchil ravishda amalga oshirish uchun unga «jonli» ovoz ustidagi ishlar asos qilib olinishi lozim. Har bir yosh bosqichida materialni asta-sekin murakkablashtirib unga nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir bo‘limlarni kiritgan holda uni murakkablashtirib borish darkor. Bolalar nutqini rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni uchta asosiy bosqichga ajratish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston. NMIU, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: —O‘zbekistonNMIU, 2017. – 48 b.
4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
5. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU, 2017-yil.
6. .D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi “Intellectual mulk agentligi”.-T.: 2020yil. (electron darslik).
7. F.R. Qodirova «Nutq o‘stirish metodikasi» O‘UM T.; 2012yil.(elektron)
8. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Sariog‘och. 1998-yil.
Qodirova F.R. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi. T.: Istiqlol, 2006 y. O‘quv qo‘llanma.
9. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish metodikasi. T.: Fan va texnologiyalar. 2009 yil. O‘quv qo‘llanma.
10. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. T.: “Barkamol avlod fayz”, 2018 y. Darslik.

11. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. T.: TDPU 2017 yil.
O‘quv qo‘llanma.
12. .S.Shodiyeva “O‘rta guruh bolalar nutqini o‘stirish” T.: “O‘qituvchi”, 1993
y. O‘quv qo‘llanma.
13. “Ilk qadam” dasturi, T.: 2018 y.